

O’ZBEKISTON TEMIR YO’LLARIDA YO’LOVCHI TASHISH TIZIMINING JORIY HOLATI VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

*TATU, mustaqil tadqiqotchi,
Nasrullayev Nurbek Baxtiyarovich*

Zamonaviy iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotda transport tizimi, xususan temir yo’l transporti strategik ahamiyatga ega. O’zbekiston Respublikasi uchun temir yo’l yo’lovchi tashish xizmatlari ichki harakatchanlikni ta’minlash, mintaqaviy aloqalarni mustahkamlash va aholining yashash sifatini yaxshilashda muhim rol o’ynaydi. Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, bugungi kunda yo’lovchi tashish faoliyatida samaradorlik, qulaylik, xavfsizlik va raqamlashtirish darajasini oshirish asosiy ustuvor yo’nalishlardan biri bo’lib qolmoqda.

1. Yo’lovchi tashish xizmatining amaldagi holati:

- O’zbekiston temir yo’llari orqali amalga oshirilayotgan yo’lovchi tashish soni, geografik qamrov doirasi, yo’nalishlar tarmog’i tahlil qilinadi.
- Statistik ma’lumotlarga ko’ra, yo’lovchilar oqimi yildan-yilga o’smoqda, ammo xizmat sifati va logistika samaradorligida ayrim kamchiliklar mavjud [1].
- Yirik shaharlarga yo’lovchi oqimining yuqoriligi, biroq ayrim chekka hududlarda transport xizmatlari yetarli emasligi kuzatilmogda.

Tashkiliy va texnik jihatlar:

- Elektrlashtirilgan yo’nalishlar, zamonaviy yo’lovchi vagonlari soni, yo’l infratuzilmasi va stansiyalar holati ko’rib chiqiladi [2].
- Yo’lovchi tashishdagi xizmat ko’rsatish madaniyati, chiptalarni onlayn sotish tizimi va yo’lovchilarning ehtiyojlarini qondirish darajasi o’rganiladi.

2. Muammolar va kamchiliklar:

- Eskirgan vagonlar parki, ba’zi yo’nalishlarda qatnov chastotasi pastligi va transportda xizmat sifati yetarli darajada emasligi asosiy muammolar sirasiga kiradi [3].

- Raqamlashtirish darajasi past, yo’lovchi axborot tizimlari hali ham to’liq integratsiyalanmagan.

3. Rivojlanish istiqbollari va tavsiyalar:

- Yangi zamonaviy vagonlar xarid qilish, elektrlashtirish loyihibalarini kengaytirish va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali tizimni takomillashtirish mumkin [4].

□ Shuningdek, mintaqaviy yo’nalishlarda qatnov chastotasini oshirish, yo’lovchilar uchun qulay narx siyosatini ishlab chiqish va servis madaniyatini yaxshilash tavsiya qilinadi.

Temir yo’l transporti orqali yo’lovchi tashish faoliyati O’zbekistonda keng tarmoqqa ega bo’lsa-da, mavjud salohiyat to’liq ishga solinmagan. Rivojlanayotgan iqtisodiyot va ichki turizmnинг oshib borishi transport xizmatlariga bo’lgan talabni kuchaytirmoqda. Shu boisdan, mavjud muammolarni hal etish, yangi texnologiyalarni joriy qilish va xizmatlar sifatini oshirish orqali temir yo’l yo’lovchi tashish tizimini yanada samarali va raqobatbardosh qilish mumkin. Bu borada xalqaro tajribalarni o’rganish, investitsiyalarni jalb etish va zamonaviy boshqaruv tizimlariga o’tish zarur.

O’zbekiston temir yo’llari tizimida yo’lovchi tashish faoliyati mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muhim o’rin tutadi. So’nggi yillarda bu yo’nalishda bir qator islohotlar amalga oshirilgan bo’lsa-da, hali hanuz yechimini kutayotgan muammolar mavjud. Xususan, transport infratuzilmasining ayrim qismlarining eskirganligi, zamonaviy vagonlar sonining yetarli emasligi, ba’zi hududlarda qatnov chastotasi pastligi, xizmatlar sifati va yo’lovchilarga ko’rsatilayotgan servisning darajasi talabga to’liq javob bermasligi tizim samaradorligini pasaytiradi.

Shu bilan birga, O’zbekistonda temir yo’l transportida yo’lovchi tashishni rivojlantirish bo’yicha hukumat tomonidan qator strategik dasturlar qabul qilingan. Jumladan, yangi tezyurar poyezdlar qatnovini yo’lga qo’yish, raqamli chiptalarni sotish tizimini joriy qilish, yo’l infratuzilmasini modernizatsiya qilish va zamonaviy logistika yechimlarini tatbiq etish orqali yo’lovchilarga qulaylik yaratish choralanmoqda.

Yo’lovchi tashish faoliyatining barqaror rivojlanishi uchun xorijiy mamlakatlar tajribasini chuqur o’rganish muhim ahamiyatga ega. Xitoy, Yaponiya, Germaniya kabi mamlakatlarda yo’lovchi transportining raqamlashtirilgan, avtomatlashtirilgan va ekologik toza shakllari keng joriy qilingan bo’lib, bu tajribalarni O’zbekistonda ham bosqichma-bosqich amaliyotga tatbiq etish dolzarbdir.

Shuningdek, aholining ehtiyojlaridan kelib chiqib, temir yo’l orqali yo’lovchi tashish xizmatlarini diversifikatsiya qilish – ya’ni turli ijtimoiy qatlamlar, nogironligi bo’lgan shaxslar, sayyoohlар uchun maxsus xizmat turlarini joriy etish zarur. Transport xizmatlarining qulayligi va xavfsizligi faqat texnik yangilanishlar bilan emas, balki xizmat ko’rsatish madaniyatini oshirish orqali ham ta’minlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. O’zbekiston Respublikasi Transport vazirligi statistik byulleteni, 2024-yil.
2. “O’zbekiston temir yo’llari” AJ rasmiy sayti: www.railway.uz, 2024-yil ma’lumotlari.
3. Xudoyberganov, B. (2023). Transport infratuzilmasining iqtisodiy samaradorligi. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
4. Islomov, N. (2022). Temir yo’l transportida raqamli transformatsiya jarayonlari. Toshkent: Innovatsiya nashriyoti.